



**“TARIXI JADIDAYI TOSHKANT” ASARIDAN AYRIM MA’LUMOTLAR
TALQINI**

Durdona Mashrabaliyeva

Namdu, Tarix yo’nalish talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola Qo’qon tarixnavislik maktabining noyob vakili Muhammad Solih Toshkandiy va uning “Tarixi jadidayi Toshkant” asari va undagi XIX asrdagi Toshkent shahri tarixi, aholisi, darvozalari, devorlari va Toshkent hokimlari, ularning siyosiy faoliyati xaqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so’zlar: *Muhammad Solih Toshkandiy, “Tarixi jadidayi Toshkant”, Toshkent, Rossiya imperiyasi, Qo’qon xonligi, Toshkent darvozalari, strategik va iqtisodiy markaz, Yunusxon, Lashkar beklarbegi, Normuhammad qushbegi.*

Ilm insonni yuksaklarga ko’taruvchi kuch hisoblanadi. Nafaqat insonni, balki butun xalqni keyingi taraqqiyotini belgilab beruvchi omillardan biri ilm hisoblanadi. Taraqqiyotgan erishgan xalq hech qachon qaram bo’lmaydi, o’z erkini qo’ldan boy bermaydi. Tarixga nazar soladigon bo’lsak taraqqiyotni yuqori darajasiga ko’tarilgan davlatlar (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, AQSH, Rossiya imperiyasi) o’zlariga nisbatan kam rivojlangan davlatlarni (Hindiston, Afrika mamlakatlari, Lotin amerkasi, Janubi-sharqiy Osiya davlatlari, O’rta Osiyo) o’zlariga qaram davlatga aylantira boshlashdi, bunga sabab u davlatlarning tashqi dunyodan bexabarligi, chegaralarining yoqpiqligi va har qanday ilmiy taraqqiyotni xurofatchilik deb qaraganlari bois boshqa davlatlardan orqada qola boshladi. Shu misollar orqali ilm-fan, madaniy va ilmiy aloqalar qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko’rishimiz mumkin. Jumladan, bizning ona zaminimiz O’rta Osiyo XVI – XIX asrlar mobaynida tashqi dunyodan uzilib qolishi, ilmiy taraqqiyotni sustligi, harbiy jihatdan taraqqiy etmagani va xonliklardagi adovatni kuchliligi bois, bizzdan taraqqiy etgan Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniyaning diqqat markazida bo’ldi. Natijada, Rossiya imperiyasi O’rta Osiyo xonliklari o’rtasidagi ichki nizolar va kelishmovchiliklar, harbiy jihatdan orqadaligidan foydalanib bosib ola boshladi. Biroq bu davrda ham adabiyot, tarix, xattotlik, musiqa, din ilmlari rivojlanishdan to’xtamagan. Rossiya imperiyasining yurtimizga harbiy harakatlari davridagi ijtimoiy-iqdisodiy, madaniy hayot haqida o’sha davr yozma manbalaridan bilib olishimiz mumkin. Shunday muarrixlardan biri Muhammad Solih Toshkandiydir.

Muhammad Solihxo’ja Toshkandiy taxminan hijriy yil hisobi bilan 1230 – 1231-yillar atrofida Toshkentning Qoryog’di mahallasida mashhur shayx Umar Bog’istoniy avlodiga mansub oilada tug’ilgan. Bobosi mulla Muhammad Rahimxo’ja o’qimishli kishilardan bo’lgan. U boshlang’ich ta’limni bobosi Mulla Abdurahimxo’jadan (u Qiyot mahallasida joylashgan Bekmuhammadbiy masjidida imom bo’lgan) [1. – B. 245.]

olgan. Muhammad Solihxo'ja 1840 – 1849-yillarda Toshkentning Eshonqulidohxoh, Lashkar beklarbegi, Xo'ja Ahror madrasalarida ta'lif olgan. XIX asrning 50-yillaridan Muhammad Solihxo'ja o'z bilimlarini oshirishga astodil kirishgan. Xususan, 1853 – 1854-yilda Namanganga sayohat qilib Eshon Baqoxo'ja ismli olimdan ta'lif olgan. 1856-yilda u Buxoroga borib, 1862-yilgacha bu shaharda taniqli olimlar va ulamolar bilan tanishgan. 1863-yildan boshlab bobosi imomlik qilgan masjidda imom bo'lib hizmat qiladi, ayni paytda dars ham berib turadi [2. – Б. 245.].

Muhammad Solihxo'ja 1863 – 1888-yillarda yozgan “Tarixi jadidayi Toshkant” asari Toshkent tarixiga bag'ishlangan birdan-bir kitobdir. Mazkur asar XIX asarning ikkinchi yarmidagi Qo'qon xonligi, xususan, Toshkentning siyosiy, ijtimoiy-iqdisodiy, madaniy hayotiga doir qimmatli ma'lumotlar mavjud. Asarning ilmiyligi shundaki, Toshkent shahri va viloyatiga doir tarixiy, jug'rofik ma'lumotlar atroflicha, izchillikda berilib, Toshkentning XIX asrdagi qiyofasi shu asar orqali mukammal yozilgan [3. – Б. 149.]. Misol uchun: Toshkent shahar nomi bilan, birga ma'muriy birlik sifatida ko'rsatiladi. U viloyat sifatida bir qancha shahar, qishloq va mavzelar kirganligini ta'kidlaydi. Asarda uning hududini taxminan Sayhun (Sirdaryo) daryosi boshlanishidan oxirigacha deb ko'rsatadi. Boshqa bir joyda esa muallif, Toshkentning sharqiy sarhadini Qurama tog'lari bilan belgilab, Toshkent mulkiga Sirdaryodan nasroniyalar yerigacha, to Xitoy va Chinga qarashli G'uljagacha bo'lgan yerlar kirganligini takidlaydi.

Asarda Toshkentning tarixiy-topografik holatiga doir ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Toshkent darvozalari xususida asarda quydagicha yozilgan. U yerda XIV asrdayoq 12 ta darvozasi bo'lganligini qayd etib, ularni Amir Temur nomi bilan bog'laydi va darvoza nomlari etimologiyasini izohlashga harakat qiladi. Muallifni yozishicha, Amir Temur Toshkentni ikkinchi bor qo'lga kiritganida uning 12 ta darvozasini qabila va urug' sardorlari nazoratiga topshirgan.

Muallif ularni quydagicha izohlaydi: Qiyot darvozasi – sharqda, qiyot qabilasi nomidan; Turk darvozasi – turk qabilasi nomidan; O'zbek darvozasi – o'zbek qabilasi nomidan; Taxtapuli darvozasi – shaharlar onasi Makka shahri nomidan; Qorasaroy darvozasi – qorasaroy qabilasi nomidan; Sug'boniyon, Ko'kcha, Kamandaron, Qang'li, Beshyog'och, Qatag'an darvozalari ham, mazkur nomlardagi qabilalar nomidan olinganligini izohlab ketgan. Darvozalarning bunday urug' qabila nomlari bilan atalishi faqat Toshkent darvozalari uchun xos bo'lib, Buxoro, Samarqand, Qo'qon darvozalarida bunday holat deyarli kuzatilmaydi. Bunga sabab XVIII asrda ham Toshkent atrofiga qabilalar ko'chib kelishgan.

Asarda Rossiyo imperiyasi istilosi voqealari bayoni cho'g'ida Qo'qon, Xiyobon, (Kamolon) Qirilmos, Beshyog'och va Ko'kcha darvozalari eng ko'p tilga olingan. Xiyobon va Qirilmos darvozalaridan istilochilarining piyoda askarlari, Ko'kcha darvozasidan esa otliq askarlar bostirib kirgan. Qo'qon darvozasi Amir Temur davriga mansub deb ko'rsatilgan Qiyot darvozaning keyingi davrlardagi nomi bo'lib, u qadimda Parkent deb ham atalgan. Xiyobon darvozasi esa rus manbalarida Kamolon shaklida

uchraydi [4. – Б. 62.]. Shundan keyin muallif shaharni mustahkamlash borasida qilingan ishlarga to’xtalib, XIV – XV asrlarda shahar baland devori bo’lganligi va uning devori Toshkentda Baroqxonning o’g’li Darvishxon (XVI), so’ngra Abdullaxon II (XVI) hukmronligi davrida ham mavjud ekanligini qayd etadi. Keyingi davrlarda tashqi dushmaning hujumi va vaqt ta’sirida shahar devori xaroba holga kelgan, muallif, Yunusxon va uning vorislari paytida (1784 – 1808) shahar qayta tiklanganini yozadi.

1808-yilda Toshkentni Qo’qon xoni qo’shinlari egallaydi. Toshkent noibi Lashkar beklarbegi davriga kelib devor yana xaroba holatga kelgan edi, deydi Muhammad Solih. Shuning uchun Lashkar beklarbegi shahar devorini qayta tilaydi, shaharni baland devor bilan o’rab, har yerida minoralar qurildi, darvozalar o’rnatildi [5. – Б. 14-15.].

Bundan tashqari asarda Toshkent aholisi haqida ham ma’lumotlar berib ketilgan. Muallif, Toshkent shahri yoki viloyatlarining aholisi soni to’g’risida aniqroq ma’lumot bermasada, XIX asrdagi Toshkent aholisi va uning tarkibini aniqlashda yordam beradi. Aholining ko’rinishini bug’doyrang, qoshlari chiroqli, ko’zлari qora, baland va o’rta bo’yli, himatl, hamiyatli, mehmondo’st, musofirparvar ekanligi va zukkoligini takidlaydi. Asarda Toshkent aholi tarkibini to’ralar, akobirlar, ashraflar va a’yonlar, savdogarlar, hunarmandlar, raiyat, fuqoro kabi tarkibini sanab o’tgan. Toshkentda qullar mehnatidan ham foydalanilgan bo’lib, ular harbiy va maishiy yumushlarni bajaruvchi habashiy, chiniy g’ulomlarni tilga oladi. Bundan tashqari hind va eroniy qullar ham mavjud bo’lgan. Shuningdek, elatiya va qaboiliya nomida charvador aholi tilga olingan, ular Toshkent hokimyatiga zakot to’lovchi qirg’iz va qozoqlarning umumiy nomidir [4. – Б. 83.]. Bu qabila va urug’lar Toshkentning siyosiy hayotidagi roli kuchli bo’lgan, jumladan “To’rt hokimlik” davrida 92 urug’ vakillari bilan bo’lgan qurlitoyda Devonbegi mahallalik Salimsoqto’ra – amir ul-umaro, Rustamto’ra – otaliq, Olimto’ra – parvonachi, Boboxonto’ra – lashkar sardori etib tayinlangan. So’ng barchalari kelishgan holda Yunusxonni viloyat voliysi etib saylaydilar. 1863 – 1864-yillarda Qo’qon xoni Sulton Saidxon ham ruslardan qochib kelgan Siddiqto’ra va uning ukasi Arslonto’raga urug’i uchun Toshkent atrofidan yerlar ajiratib beradi. Shu sababli Toshkent sharqi, shimoli va g’arbida asosan qozoqlar, yoki tilga olingan urug’ nomlari: sanchiqli, sergeli, dug’lot, arg’in va tamg’ali kabi urug’lar istiqomat qilgani aytildi [4. – Б. 84.].

Shuningdek, asarda Toshkentning yuqori tabaqa vakillari hokimlar va yuqori boshqaruvdagi shaxslar haqida ham ma’lumotlat talaygina. Ular asosan Toshkentni Qo’qon xoni Olimxon (1798 – 1810) bosib olgandan keyingi davrlardagi hokimlardir. Ular: Salimsoqto’ra Toshkandiy, Lashkar beklarbegi, Sulton Muhammad ibn Umarxon, Muhammad Sharif otaliq, Mallaxon, Salimsoqxon, Mullo Xolbek, Aziz parvonachi, Normuhammad qushbegi, Niyozmuhammad, Tursunmuhammad, Shomonxo’ja qushbegi, So’fibek Davronbek o’g’li, Mirzo Ahmad, Yunusxon munshiy, Qanoat otaliq Odilbek o’g’li, Qo’sh farmonchi qipchoq.

Asarda muallif Toshkent hokimlari orasida Lashkar beklarbegi to'g'risida ko'p to'xtalgan. U Qo'qon xoni Muhammad Alixon (Madalixon) buyrug'i bilan Toshkent devorlarini ta'mirlab, O'rda atrofida xandaq qazdirgan, hamda shahar atrofida bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirib, shaharda madrasa, karvonsaroy, rabot va tegirmonlar qurdirgan. 1835-yilda u "beklarbegi" unvonini olgan bo'lib, bu unvonni xonlikda juda kam amaldor olgan. Boshqa bir Toshkent hokimi Qanoat otaliq Qo'qon xoni Mallaxon davrida Pishpakda (Bishkek) rus askarlariga qarshi jangdan so'ng "otaliq g'oziy" unvonini olgan. Ko'pchilik hokimlarning Toshkent hokimi bo'lgunga qadar uning atrofidagi Bo'ka, Qurama, Ovliq, Turkiston, Chimkent kabi ma'muriy birliklarning hokimi vazifasini bajarishgan, bu xonlikdagi eng katta va muhim viloyatni boshqaruvchi nomzodlar uchun sinov amali bo'lgan. Ayrim qaltis vaziyatlardagina xonlar Toshkentga o'z aka-ukalari yoki Qo'qondagi ishonchli amaldorlarni tayinlagan. Jumladan Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida Mallaxon, Sulton Murodbek va ruslar istilosi davrida Yunusxon munshiy shunday hollarda hokim etib tayinlangan. Toshkendagi hokimlarning nufuzi boshqa viloyat hokimlari nufuzidan kuchli bo'lgan. Sababi Toshkent yirik savdo-sanoat, karvon yo'llari kesisgan joyda joylashgan boy viloyat bo'lgan. Hokimlar siyosiy vaziyatga ko'ra, yoki ish olib borishiga qarab xonlar tomonidan xohlagan vaqtida almashtirilgan.

Markaziy hokimiyatni qo'lga olgan Musulmonqul mingboshi va Alimquli amirlashkar davrida Toshkent hokimlarini tayinlash va ularni vazifasidan olish ularni qo'lida bo'lgan. Lekin ayrim hokimlar, xususan, Lashkar beklarbegi, Normuhammad Qo'shbegi, Qanoat otaliq Toshkent hokimlari ichida eng nufuzlisi bo'lgan va ular xonlikdagi siyosiy vaziyatlarga o'z ta'sirini o'tkaza olganlar. Xususan, Lashkar beklarbegi Qo'qon xoni Muhammad Alixoning Qashg'arga yurishida Toshkent qo'shiniga, 1840-yilda Amir Nasrulloha qarshi O'rategaga yurishida Qo'qon qo'shiniga boshchilik qiladi. Normuhammad qo'shbegi esa, 1852-yilda Musulmonqul mingboshi hukumatiga qarshi chiqib, uning ta'qibidan qochganlarni himoyasiga olgan va butun mamlakatda qipchoqlarga qarshi guruhiga boshchilik qilgan. 1862-yilda esa Qatag'on otaliq Shohmurodxon ibn Salimsoqxonni xon etib ko'targan hukumatiga qarshi chiqib, amirlik hududida yurgan Xudoyorxonni xon qilib ko'targan edi [4. – Б. 108–110.]. Bundan ko'rinib turibdiki, Toshkent joylashuviga ko'ra strategik ahamiyatga ega bo'lgan, unga tayinlangan hokimlarning siyosiy mavqelari ham baland bo'lgan. Rossiya imperiyasi hukumati ham Toshkent muhim karvon yo'llari kesishgan joyda joylashgani bois birinchi e'tiborini bu shaharga qaratgan. Shahar shuningdek, suv resuslari bilan o'zini to'liq ta'minlay olgan va dehqonchilik, chorvachilik uchun ham qulay hudud hisoblangan.



CANADA



CANADA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – T.: O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
2. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001.
3. Ergashev B. Manbashunoslik va tarixshunoslik. – Samarqand.: SamDu, 2021.
4. Султонов Ў. А. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидайи Тошкант” асари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
5. Ўринбоев А., Буриев О. Тошкент Муҳаммад Солиҳ тавсифида. – – Т.: Фан, 1983.
6. Internet saytlari: WWW.Ziyonet.uz, SHosh.UZ, WWW-hozir.org.